XALQ DEPUTATLARI JIZZAX SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 16-mart VII-18-60-3-55-K/26 Jizzax shahar

Jizzax shahrida Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan shahar markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha tariflar belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–387-sonli qarori ijrosini ta′minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Jizzax shahar Kengashi

Q A R O R Q I l A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 387-sonli qarori 8-bandi a-kichik bandida 2026-yil 1-yanvardan boshlab obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan tuman (shahar)lar markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatishga ruxsat beriladi. Bunda chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha tariflar tuman (shahar)lar hokimliklari tomonidan Xalq deputatlari tuman (shahar)lar kengashlariga ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritish vakolati berilganligi ijro uchun qabul qilinsin.

2. Jizzax shahar hokimligining 2026-yil 18-fevraldagi 01/02-65-sonli xati ma′lumot uchun qabul qilinsin.

3. Jizzax shahrida Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan shahar markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha belgilangan tariflar narxi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Jizzax shaharhokimining birinchi o‘rinbosari S.Haydarov, Jizzax shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Abduvahobov)larga mazkur qaror ijrosini o‘z vaqtida va samarali ta′minlash vazifalari yuklatilsin.

5. Ushbu qaror “Jizzax ovozi” gazetasida rasmiy e′lon qilinsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish, xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Azimov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **IMOMOV MUSAXON XXX**

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2026-yil 16-martdagi
VII-18-60-3-55-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Jizzax shahrida Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan shahar markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha belgilangan tariflar narxi to‘g‘risida
MA`LUMOT

Mahsulot nomi va qisqacha texnik tavsifi	Turi, markasi, qismi yoki model raqami	O‘lchov birligi	Mahsulot birligiga cheklangan narxi (tarif, rentabellik, marja) (QQS siz so‘m)	
			Joriy narx (tarif)	Korxonalar tomoni taklif qilingan
1	*2*	*3*	*4*	*5*
Xo‘jalik subyektlar (yuridik va yakka tartibdagi tadbirkorlar, korxona-tashkilotlar)dan qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmati	Qattiq va maishiy chiqindilarni tashib ketish	*Kub (m3)*	*0*	*50 000*
		Tn (tonna)	*0*	*112 800*